



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2023-yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **37,3** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,7** mingtaga kamaygan yoki **17,1** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,9** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023-yilning yanvar-iyunida **4,4** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31,7** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2019-2023-yillar 1-iyul holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2023-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni (birlikda) va ulushi, foizda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2023-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2022-y.		2023-y.
13 034	Samarqand sh.	10 243
1 448	Kattaqo'rg'on sh.	1 266
1 926	Oqdaryo	1 669
1 851	Bulung'ur	1600
1 858	Jomboy	1 619
2 401	Ishtixon	1 955
2 272	Kattaqo'rg'on	1 979
953	Qo'shrabot	897
1 398	Narpay	1 293
2 307	Payariq	1 865
3 824	Pastdarg'om	2 866
1 127	Paxtachi	1 084
3 307	Samarqand	3 028
1 386	Nurobod	1 222
3 914	Urgut	2 936
1 951	Toyloq	1 746

2023-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **37 268** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 438** tani tashkil etdi.

2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida **10 243** tani yoki jamiga nisbatan **27,5 %** ni tashkil etdi.

2023-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Samarqand sh.	18,4
Samarqand	13,6
Bulung'ur	13,4
Kattaqo'rg'on sh.	13,4
Oqdaryo	12,8
Jomboy	12,8
Nurobod	12,6
Payariq	12,4
Ishtixon	10,8
Toyloq	10,8
Kattaqo'rg'on	10,7
Qo'shrabot	10,5
Paxtachi	9,9
Pastdarg'om	9,2
Urgut	8,4
Narpay	7,8

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2023-yil 1-iyul holatiga, birlikda



2023-yil 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **11,9** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan **0,9** birlikka ko'paygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,4** birlik, Samarqand tumanida **13,6** birlik, Bulung'ur tumanida **13,4** birlik, Kattaqo'rg'on tumanida **13,4** birlik va Oqdaryo tumanida **12,8** birlikka yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Samarqand shahar
18,4 birlik.



O'rta ko'rsatkich

Ishtixon tumani
10,8 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Narpay tumani
7,8 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,4** birlik, Samarqand tumanida **13,6** Bulung'ur tumanida **13,4** birlik, Oqdaryo va Jomboy tumanlarida **12,8** birlik, Nurobod tumanida **12,6** birlik, Payariq tumanida **12,4** birlik, Ishtixon va Toyloq tumanlarida **10,8** birlik, Kattaqo'rg'on tumanida **10,7** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2023-yil 1-iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Samarqand shahar

18,4

Bulung'ur tumani

13,4

Jomboy tumani

12,8

Samarqand tumani

13,6

Oqdaryo tumani

12,8

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2022-y.

2023-y.

1 622	Samarqand sh.	942
608	Pastdarg'om	416
507	Samarqand	362
517	Urgut	298
295	Bulung'ur	269
336	Oqdaryo	250
335	Kattaqo'rg'on	246
402	Ishtixon	236
313	Payariq	232
311	Toyloq	229
292	Jomboy	197
245	Nurobod	174
191	Paxtachi	160
192	Narpay	153
185	Kattaqo'rg'on sh.	148
148	Qo'shrabot	126

2023-yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

Samarqand sh.	21,2
Pastdarg'om	9,4
Samarqand	8,2
Urgut	6,7
Bulung'ur	6,1
Oqdaryo	5,6
Kattaqo'rg'on	5,5
Ishtixon	5,4
Payariq	5,2
Toyloq	5,2
Jomboy	4,5
Nurobod	3,9
Paxtachi	3,6
Narpay	3,4
Kattaqo'rg'on sh.	3,3
Qo'shrabot	2,8


2023-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri **21,2** %, Pastdarg'om tumani **9,4** %, Samarqand tumani **8,2** %, Urgut tumani **6,7** %, Bulung'ur tumani **6,1** %, Oqdaryo tuman **5,6** %, Kattaqo'rg'on tumani **5,5** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2022-2023-yillarning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2023-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 922 ta, sanoatda 751 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 448 ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Samarqand shahrida 942 ta, Pastdarg'om tumanida 416 ta, Samarqand tumanida 362 ta hamda Urgut tumanida 298 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023-yillarning yanvar-iyuni davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023-yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **24 939** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **10 300** (yoki **41,3 %**) ta, xizmatlar sohasida **5 619** (yoki **22,5 %**) ta, sanoat sohasida **4 879** (yoki **19,6 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **2 809** (yoki **11,3 %**) ta va qurilish sohasida **1 332** (yoki **5,3 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, foizda




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi




Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2022-y. ■ 2023-y.




■ 2022-y. ■ 2023-y.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), foizda

2023-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **69,1** % ni tashkil qilib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **0,1** punktga kamaygan.

Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, foizda




2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **98,4** % ni, yo'lovchi tashishda **96,0** % ni, qishloq xo'jaligida **94,7** % ni, yuk aylanmasida **89,8** % ni, qurilishda **83,7** %, chakana savdoda **81,0** % ni, tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	1 966,5
Urgut	809,3
Jomboy	706,2
Samarqand	691,3
Bulung'ur	404,0
Pastdarg'om	319,4
Oqdaryo	292,3
Payariq	266,2
Toyloq	229,8
Kattaqo'rg'on sh.	206,2
Narpay	182,2
Kattaqo'rg'on	170,2
Ishtixon	146,4
Paxtachi	127,2
Qo'shrabot	55,9
Nurobod	45,3

2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 618,3 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (1 966,5 mlrd. so'm), Urgut (809,3 mlrd. so'm), Jomboy (706,2 mlrd. so'm), Samarqand (691,3 mlrd. so'm) va Bulung'ur (404,0 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Nurobod tumani (45,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2023-yil yanvar-iyunida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 45,2 % ni tashkil etdi.




2023-yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo, Bulung'ur va Qo'shrabot tumanlari (100,0 %), Kattaqo'rg'on shahri (97,7 %), Urgut tumani (79,5 %), Payariq tumani (72,7 %), Samarqand tumani (66,4 %), Pastdarg'om tumani (63,8 %), Jomboy tumani (50,7 %), Narpay tumani (46,9 %), Kattaqo'rg'on tumani (46,6%) va Nurobod tumani (33,1 %) tashkil etdi.

Bulung'ur	100,0
Oqdaryo	100,0
Qo'shrabot	100,0
Kattaqo'rg'on sh.	97,0
Urgut	79,5
Payariq	72,7
Samarqand	66,4
Pastdarg'om	63,8
Jomboy	53,5
Narpay	51,1
Kattaqo'rg'on	48,4
Nurobod	36,4
Toyloq	36,1
Paxtachi	32,6
Ishtixon	31,6
Samarqand sh.	26,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2023-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Toyloq	168,1	30,9
Pastdarg'om	181,0	47,7
Nurobod	33,0	72,1
Payariq	279,0	89,0
Qo'shrabot	85,5	89,8
Kattaqo'rg'on sh.	54,0	92,5
Bulung'ur	113,9	93,7
Urgut	235,5	95,0
Samarqand sh.	1 308,3	96,3
Ishtixon	205,3	97,4
Kattaqo'rg'on	121,7	97,7
Paxtachi	79,4	98,8
Narpay	111,6	99,1
Oqdaryo	338,5	99,2
Samarqand	190,9	99,3
Jomboy	195,5	100,0


2023-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 701,2** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **83,7 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **113,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (**1 308,3** mlrd. so'm), Oqdaryo (**338,5** mlrd. so'm), Payariq (**279,0** mlrd. so'm), Urgut (**235,5** mlrd. so'm), Ishtixon (**205,3** mlrd. so'm), Jomboy (**195,5** mlrd. so'm), Samarqand (**190,9** mlrd. so'm) hamda Pastdarg'om (**181,0** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

hajmi, mlrd. so'mda ————— ↑
 ulushi, % ————— ↑

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **6 666,2** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **54,4 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan **112,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**1 853,5** mlrd. so'm), Samarqand (**992,7** mlrd. so'm), Kattqo'rg'on (**721,7** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**564,4** mlrd. so'm), Urgut (**404,0** mlrd. so'm), Nurobod (**370,4** mlrd. so'm), Payariq (**290,5** mlrd. so'm) hamda Qo'shrabot (**286,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi mlrd. so'mda — ulushi %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **15 682,2** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **94,7** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **105,0** % ni tashkil qildi.

2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Pstdarg'om (**1 716,8** mlrd. so'm), Urgut (**1 701,5** mlrd. so'm), Payariq (**1 469,9** mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Kattaqo'rg'on sh.	83,4	99,8
Samarqand sh.	94,4	90,0
Samarqand	586,4	71,1
Qo'shrabot	646,2	99,8
Narpay	728,6	98,9
Nurobod	777,0	97,4
Toyloq	863,0	74,4
Jomboy	872,2	83,4
Paxtachi	998,5	99,5
Oqdaryo	1160,1	95,2
Ishtixon	1279,2	99,8
Kattaqo'rg'on	1345,6	99,3
Bulung'ur	1359,6	99,4
Payariq	1469,9	99,8
Urgut	1701,5	99,9
Pstdarg'om	1716,8	97,9


hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, %

2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 882,4** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **81,0 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022-yilning tegishli davriga nisbatan **107,0 %** ni tashkil qildi.

2023-yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Qo'shrabot	150,7	98,2
Nurobod	190,5	98,7
Oqdaryo	290,0	97,9
Paxtachi	293,8	98,8
Toyloq	385,4	97,8
Ishtixon	402,1	99,2
Jomboy	419,6	89,8
Payariq	443,1	99,2
Narpay	463,1	99,2
Bulung'ur	492,8	96,8
Pastdarg'om	552,4	96,5
Kattaqo'rg'on	649,5	96,1
Samarqand	709,5	77,1
Kattaqo'rg'on sh.	734,1	99,9
Urgut	1 265,3	98,4
Samarqand sh.	2 440,4	55,7

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (**2 440,4** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**734,1** mlrd. so'm), Urgut (**1 265,3** mlrd. so'm), Samarqand (**709,5** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**649,5** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**552,4** mlrd. so'm) va Bulung'ur (**492,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda




Samarqand sh.	2 875,7
Samarqand	754,3
Pastdarg'om	643,2
Urgut	623,3
Jomboy	468,9
Toyloq	409,5
Payariq	382,2
Kattaqo'rg'on	381,7
Ishtixon	377,6
Narpay	360,6
Oqdaryo	331,3
Bulung'ur	258,9
Kattaqo'rg'on sh.	245,2
Qo'shrabot	213,9
Paxtachi	210,9
Nurobod	199,2

2023-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **8 736,4** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,1 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (**2 875,7** mlrd. so'm), Samarqand (**754,3** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**643,2** mlrd. so'm), Urgut (**623,3** mlrd. so'm), Jomboy (**468,9** mlrd. so'm), Toyloq (**409,5** mlrd. so'm) va Payariq (**382,2** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida 35,7 % (3116,2 mlrd. so'm), transport xizmatlarida 33,2 % (2896,4 mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda 6,7 % (587,8 mlrd. so'm) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida 5,7 % (499,8 mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda 0,5 % (41,2 mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH. dol.




Ulushi, %




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH. dol.




Ulushi, %



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2023-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **128,2** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **44,7** % ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Nurobod	1,6	100,0
Qo'shrabot	1,1	100,0
Kattaqo'rg'on sh.	9,4	100,0
Bulung'ur	7,3	100,0
Oqdaryo	9,0	100,0
Payariq	5,3	100,0
Urgut	17,9	80,2
Kattqo'rg'on	2,8	78,8
Ishtixon	5,1	64,7
Narpay	5,9	63,8
Pastdarg'om	4,5	58,4
Toyloq	4,3	55,1
Samarqand	16,8	49,3
Paxtachi	2,2	41,6
Jomboy	11,4	37,5
Samarqand sh.	19,2	16,0


hajmi, mln. AQSH dollar

ulushi, %

2023-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Payariq, Oqdaryo, Bulung'ur, Qo'shrabot, Nurobod tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida **100,0** %, Urgut tumanida **80,2** %, Kattaqo'rg'on tumanida **78,8** %, Ishtixon tumanida **64,7** %, Narpay tumanida **63,8** %, Pastdarg'om tumanida **58,4** %, va Toyloq tumanida **55,1** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Samarqand shahri **16,0** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023-yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda




2023-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **456,1** million AQSh dollarini yoki jami importning **52,0** % ini tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, foizda

2023-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Payariq va Qo'shrabot tumanlarida **100,0** %, Kattqo'rg'on tumanida **99,8** %, Kattaqo'rg'on shahrida **99,5** %, Paxtachi tumanida **96,3** %, Ishtixon tumanida **88,1** %, Bulung'ur tumanida **87,8** %, hamda Narpay tumanida **86,9** % ni tashkil etdi.

Payariq	100,0
Qo'shrabot	100,0
Kattaqo'rg'on	99,8
Kattaqo'rg'on sh.	99,5
Paxtachi	96,3
Ishtixon	88,1
Bulung'ur	87,8
Narpay	86,9
Pastdarg'om	86,6
Urgut	83,4
Oqdaryo	75,6
Nurobod	66,7
Samarqand	60,9
Jomboy	58,4
Samarqand sh.	33,3
Toyloq	23,8


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



91,8 %

Yuk
tashishda


2023-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,8 %** ni tashkil etdi. 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.



89,8 %

Yuk
aylanmasida


2023-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,8 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,0 %** ni tashkil qildi.



96,0 %

Yo'lovchi
tashishda

2023-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,0 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,4 %** ni tashkil qildi.




98,4 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2023-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,4 %** ni tashkil etib, 2022-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,3 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023-yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **2 072** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **961 (46,4 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **955 (46,1 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **156 (7,5 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda **54,3 % (1 125 ta)**, xizmatlar sohasida **22,3 % (462 ta)**, sanoatda **12,9 % (268 ta)**, qurilishda **6,0 % (124 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **4,5 % (93 ta)**ni tashkil etdi.

2023-yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

638	Samarqand sh.	30,8
83	Kattaqo'rg'on sh.	4,0
73	Oqdaryo	3,5
84	Bulung'ur	4,1
93	Jomboy	4,5
87	Ishtixon	4,2
106	Kattaqo'rg'on	5,1
49	Qo'shrabot	2,4
88	Narpay	4,2
95	Payariq	4,6
128	Pastdarg'om	6,2
64	Paxtachi	3,1
190	Samarqand	9,2
60	Nurobod	2,9
140	Urgut	6,8
94	Toyloq	4,5


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (**638** ta), Samarqand (**190** ta), Urgut (**140** ta), Pastdarg'om (**128** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning II choragida **295** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning II choragiga kelib esa **961** taga yetgan yoki 2018-yilning II choragiga nisbatan **666** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilda **635** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-iyunida **955** ta yoki **320** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **23** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib **156** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan **133** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning II choragida **295** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning II choragiga kelib esa **953** taga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **658** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2018-yilning II choragida **635** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning II choragida **755** ta yoki **120** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2018-yilning II choragida **23** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **186** tani tashkil etib, **163** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning II choragida **31,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **50,3** % ga yetgan yoki 2018-yilga nisbatan **18,7** % birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilda **67,9** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning II choragida **39,9** % yoki **28,0** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilda **2,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich **9,8** % ga yetgan yoki **7,6** % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023-yillar II-choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018-yilning II choragida **67,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib esa **55,7** % ga yetgan yoki 2018-yilning II choragida nisbatan **11,4** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2018-yilning II choragida **32,3** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning yanvar-iyunida **40,0** % yoki **7,7** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2018-yilning II choragida **0,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **4,2** % yoki **3,6** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2023-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **48,8 %** ni, sanoatda **44,0 %** ni, xizmatlar sohasida **47,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilish **55,6 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **54,8 %** ni, sanoatda **46,3 %** ni, xizmatlar sohasida **45,5 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **9,7 %** ni, qurilishda **8,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2023-yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda **60,4** % ni, sanoatda **60,1** % ni, xizmatlar sohasida **57,4** % ni va qurilishda **4,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **47,3** % ni, qurilishda **40,3** % ni va xizmatlar sohasida **37,7** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida **6,5** % ni, qurilishda – **5,6** % ni hamda xizmatlar sohasida – **5,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, foizda


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	50,3	39,9	9,8
Band bo'lganlar soni	31,5	61,7	6,8
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,8	53,1	5,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	33,0	61,3	5,7
Raqobat muhiti	46,9	50,0	3,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	55,7	40,0	4,3
Band bo'lganlar soni	35,7	60,9	3,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	43,1	53,4	3,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	35,8	60,2	4,0
Raqobat muhiti	47,1	50,2	2,7


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, foizda



2023-yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, foizda



* Faqat raqobat muhitiga tegishli